



BOJXONA ORGANLARIDA MA'MURIY HUQUQBUZARLIK TO'G'RISIDAGI ISHLARNI YURITISH TIZIMINI TAKOMILASHTIRISH

Allambayev Javlonbek Rustamovich

Bojxona qo'mitasining Bojxona instituti o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20432006>

Annotatsiya. Mazkur maqolada ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni yuritish tizimi va bojxona organlarida ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni yuritish tizimining nazariy va amaliy masalalari, xususan, bojxona organlari tomonidan yuritiladigan ishlar mazmuni hamda ayrim rivojlangan horijiy davlatlar tajribasi va qonunchilik tahlili yuzasidan ma'lumotlar keltirilib, ushbu tartib va qoidalar orqali milliy qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni yuritish, Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni yuritish vazifalari, bojxona sohasidagi ma'muriy huquqbuzarliklar, ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritishning elektron tizimi, "E-ma'muriy ish" axborot tizimi.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ ПРОИЗВОДСТВА ПО ДЕЛАМ ОБ АДМИНИСТРАТИВНЫХ ПРАВОНАРУШЕНИЯХ В ТАМОЖЕННЫХ ОРГАНАХ

Аннотация. В данной статье представлена информация о теоретических и практических вопросах системы производства по делам об административных правонарушениях и системы производства по

Contact: 99 826 99 56





делам об административных правонарушениях в таможенных органах, в частности, о содержании дел, ведущихся таможенными органами, а также об опыте и анализе законодательства некоторых развитых зарубежных стран, а также даны предложения и рекомендации по совершенствованию национального законодательства посредством данных процедур и правил.

Ключевые слова: Производство по делам об административных правонарушениях, задачи производства по делам об административных правонарушениях, административные правонарушения в таможенной сфере, электронная система производства по делам об административных правонарушениях, информационная система “Е-ма'мурiy ish”

IMPROVING THE SYSTEM OF ADMINISTRATIVE OFFENSE PROCEEDINGS IN CUSTOMS AUTHORITIES

Annotation. This article presents information on the theoretical and practical issues of the administrative offense proceedings system and the administrative offense proceedings system in customs authorities, in particular, the content of cases handled by customs authorities, as well as the experience and legislative analysis of some developed foreign countries, and provides proposals and recommendations for improving national legislation through these procedures and rules.

Keywords: Conducting cases on administrative offenses, Tasks of conducting cases on administrative offenses, administrative offenses in the customs sector, electronic system for conducting cases on administrative offenses,

Contact: 99 826 99 56





“E-administrative case” information system.

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni yuritishga oid asosiy normativ-huquqiy hujjat, bu - O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi (bundan keyin matnda MJtK deb yuritiladi) hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining MJtK qanday harakat yoki harakatsizlik ma'muriy huquqbuzarlik hisoblanishini, ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etgan shaxsga nisbatan qaysi organ (mansabdor shaxs) tomonidan qay tartibda qanaqa ma'muriy jazo qo'llanilishi va ijro etilishini belgilaydi.

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni yuritish – ma'muriy protsess tarkibidagi ma'muriy yurisdiksiyaviy faoliyatning alohida turi bo'lib, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni qo'zg'atish, ularni ko'rib chiqish hamda ishni tugatishgacha bo'lgan harakatlar majmuidan iborat.[1]

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni yuritish vazifalari: har bir ishning holatini o'z vaqtida, har tomonlama, to'la va obyektiv ravishda aniqlab chiqishdan, bu ishni qonunchilikka muvofiq holda hal etishdan, chiqarilgan qarorning ijrosini ta'minlashdan, shuningdek ma'muriy huquqbuzarlik sodir etish sabablari va bunga olib kelgan shart-sharoitlarni aniqlashdan, huquqbuzarliklarning oldini olishdan, fuqarolarni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etish ruhida tarbiyalashdan, qonuniylikni mustahkamlashdan iboratdir. [2]

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni yuritish tartibi davlat boshqaruvi tizimida qonuniylikni ta'minlash, huquqbuzarliklarni tezkor aniqlash va ularga nisbatan adolatli chora ko'rishning muhim protsessual mexanizmlaridan biri hisoblanadi.

Endilikda, bojxona sohasidagi ma'muriy huquqbuzarliklar deganda,

Contact: 99 826 99 56





O'zbekiston Respublikasining MJtK bilan javobgarlik belgilangan bojxona organlari faoliyati bilan bog'liq huquqbuzarliklar tushuniladi.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 227, 227¹-227²⁷ moddalarida bojxona qonunchiligi buzilishi uchun ma'muriy javobgarlikni belgilovchi normalar ko'rsatib o'tilgan. Mazkur qoidabuzarliklar bojxona chegarasini kesib o'tish, bojxona rasmiylashtiruvi hamda bojxona to'lovlarini undirish bilan bog'liq jarayonlarda kelib chiqadi.

Darslikliklarda bojxona sohasiga oid ma'muriy huquqbuzarliklar sodir etish xarakteriga ko'ra quyidagicha tasniflangan:

1.Tovarlar va transport vositalarini bojxona chegarasidan o'tkazilishi bilan bog'liq ma'muriy huquqbuzarliklar – bu Bojxona kodeksida va boshqa qonun hujjatlarida belgilangan tovarlar va transport vositalarini bojxona chegarasidan o'tkazilishi bilan bog'liq tartib va qoidalarga aybli g'ayrihuquqiy rioya etmaslikdir.

2.Bojxona nazorati, rejimlari va rasmiylashtiruvi bilan bog'liq ma'muriy huquqbuzarliklar bu - Bojxona kodeksi va boshqa qonun hujjatlarida belgilangan bojxona nazorati va rasmiylashtiruvi bilan bog'liq tartib va qoidalarga aybli g'ayrihuquqiy rioya etmaslikda ifodalanadi.

3.Bojxona to'lovlari bilan bog'liq ma'muriy huquqbuzarliklar bu - Bojxona kodeksi va boshqa qonun hujjatlarida belgilangan bojxona to'lovlari bilan bog'liq tartib va qoidalarga aybli g'ayrihuquqiy rioya etmaslikdir.[3]

Bojxona sohasidagi ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni yuritish –ma'muriy protsess tarkibidagi ma'muriy yurisdiksiyaviy faoliyatning alohida turi bo'lib, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni qo'zg'atish, ish bo'yicha dalillar to'plash, protsessual hujjatlar tuzish, ularni ko'rib chiqish hamda ishni tugatishgacha bo'lgan harakatlar majmuidan iborat.

O'zbekiston Respublikasi MJtK huquqbuzarliklar havola qiluvchi

Contact: 99 826 99 56





normalardan ya'ni ayrim masalalarni boshqa qonun hujjatlariga yoki normalarga havola qiladi. Jumladan bojxona sohasidagi ma'muriy huquqbuzarliklar bojxona kodeksi va boshqa normativ huquqiy xujjatlarga yo'naltiradi. Shuning uchun bojxona organlarida ma'muriy huquqbuzarliklarni yuritish jarayonida bojxona qoidalarini chuqur bilish lozim va qaysi xarakatni buzganlik uchun qanday javobgarlik belgilanganligini bilish mumkin. Hozirda tovar moddiy-boyliklari hamda zararlar bilan bog'liq bo'lmagan (formal tarkibli) huquqbuzarliklarni soddalashtirilgan tartibda yuritish va ko'rib chiqishni zamoning o'zi taqozo qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunchiligi mazkur sohada muayyan huquqiy asoslarni belgilab bergan bo'lsada, amaliyotda ish yuritish jarayonida ortiqcha qog'ozbozlik, xolis guvohlarni jalb qilish bilan bog'liq muammolar, dalillarni tekshirishdagi tashkiliy qiyinchiliklar hamda sudlarda ishlarni ko'rib chiqish tartibining samaradorligi bilan bog'liq ayrim masalalar saqlanib qolmoqda. Shu bois mazkur sohani rivojlantirishda ilmiy asoslangan islohot takliflarini ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi.

Avvalo, ma'muriy huquqbuzarlik ishlarini yuritishda ortiqcha qog'ozbozlikni qisqartirish masalasiga e'tibor qaratish zarur. Amaldagi tartibga ko'ra, huquqbuzarlik holati aniqlanganidan so'ng bayonnoma tuzish, guvohlarning tushuntirish xatlari, dalillarni rasmiylashtirish, protsessual hujjatlarni tayyorlash kabi bir qator hujjatlar qog'oz shaklida rasmiylashtiriladi. Bu esa ish yuritish jarayonini sekinlashtirishga hamda inson omili bilan bog'liq xatolar ehtimolining ortishiga olib keladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 20.04.2022-yildagi "Davlat xizmatlari ko'rsatishni soddalashtirish, byurokratik to'siqlarni qisqartirish hamda davlat xizmatlari ko'rsatish milliy tizimini rivojlantirishning qo'shimcha

Contact: 99 826 99 56





chora-tadbirlari to'g'risida" PF-113-son farmoni asosida Respublikada davlat xizmatlarini ko'rsatishda byurokratizm, sansalorlik va boshqa ma'muriy to'siqlarni bartaraf etish, eskirgan va zamon talablariga mos kelmaydigan tartib-taomillarni tubdan qisqartirishga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, aholi va tadbirkorlik subyektlari tomonidan 73 turdagi ma'lumotnoma va hujjatlar taqdim etilishi talabi bekor qilinib, davlat organlari tomonidan ushbu ma'lumotlarni "Elektron hukumat" tizimi idoralararo integratsiyalashuv platformasidan foydalangan holda olish tizimi joriy etildi.

Shu bilan birga ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni yuritish va ko'rib chiqish vakolatiga ega bo'lgan davlat organlarining axborot tizimlari va ma'lumotlar bazalarini Yagona billing tizimiga bosqichma-bosqich integratsiya qilish ishlar belgilandi.

Shu nuqtayi nazardan, ilmiy adabiyotlarda ma'muriy protsessni raqamlashtirish orqali protsessual harakatlarni avtomatlashtirish samarali yechim sifatida baholanadi.

"Yevropa Ittifoqi davlatlarida ma'muriy huquqbuzarlik ishlarini yuritishda elektron platformalardan foydalanish amaliyoti European Commission raqamlashtirish siyosati hamda European Union Agency for Law Enforcement Cooperation (Europol) hisobotlarida qayd etilganidek, huquqbuzarliklarni foto va videofiksatsiya qilish, elektron bayonnomalarni shakllantirish hamda ma'lumotlarni yagona axborot tizimlarida saqlash mexanizmlari orqali amalga oshiriladi." [4] O'zbekistonda ham ma'muriy ish yuritishni bosqichma-bosqich elektron formatga o'tkazish, elektron bayonnoma va elektron dalillar bazasini joriy etish orqali ortiqcha qog'ozbozlikni sezilarli darajada kamaytirish mumkin.

Ikkinchidan, ma'muriy huquqbuzarlik holatlarini qayd etishda xolis

Contact: 99 826 99 56





guvohlarni jalb qilish amaliyotidir. Amaldagi tartibga ko'ra, ayrim protsessual harakatlarni amalga oshirishda ikki nafar xolis va guvoh ishtirok etishi talab qilinadi. Biroq amaliyotda xolis guvohlarni topish, ularning shaxsini aniqlash va ulardan tushuntirish xatlari olish muayyan vaqt va tashkiliy resurslarni talab qiladi. Shu sababli qator davlatlarda mazkur institutni texnologik vositalar bilan almashtirish amaliyoti shakllangan. Masalan, "Germaniya va Finlyandiya kabi davlatlarda protsessual harakatlarni audio va video yozuv orqali qayd etish Strafprozessordnung [5] hamda Finlyandiya protsessual qonunchiligi normalarida nazarda tutilgan bo'lib, Council of Europe va European Commission materiallarida qayd etilganidek, mazkur vositalar inson omili ta'sirini kamaytirish va protsessual harakatlarning xolisligini ta'minlashda samarali instrument sifatida baholanadi." [6]

Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston qonunchiligida ayrim protsessual harakatlar bo'yicha xolis va guvohlar ishtirokini majburiy talab sifatida belgilash o'rniga, ularni videoyozuv yoki elektron bayonnomalashtirish bilan almashtirish imkoniyatini nazarda tutish maqsadga muvofiq.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 08.07.2021-yildagi "Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritishning elektron tizimini joriy etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar haqida" 431-son qaror bilan "E-ma'muriy ish" tizimi amaliyotga joriy etilib, ushbu axborot dasturi orqali huquqbuzarlik sodir etilgan holat yuzasidan ma'muriy ish hujjatlarini elektron tarzda rasmiylashtirish va shakllantirish, vakolatli organga elektron yuborish hamda huquqbuzarlik sodir etgan shaxs, jabrlanuvchi, guvoh va xolislar to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash, umumlashtirish, saqlash, tahlil qilish, shuningdek, vakolatli organlar o'rtasida idoralararo axborot almashishning yagona markazlashtirilgan elektron tizimi hisoblanadi.

Mazkur axborot dasturiga ma'muriy ishlarni qo'zg'atish, ko'rib chiqish va

Contact: 99 826 99 56





bayonnoma tuzishga vakolatli ega davlat organlari tomonidan ma'lumotlar kiritiladi. Hozirda vakolatli organlar soni 48 taga etgan.

Vakolatli organlar tomonidan huquqbuzar, jabrlanuvchi, guvoh va xolilar to'g'risidagi ma'lumotlarni sudga yuborish, shuningdek, sudda ishni ko'rish bilan bog'liq ma'lumot almashinuvi faqat "E-ma'muriy ish" tizimi orqali amalga oshiriladi. Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishning qog'oz nusxasi skanerlanib, elektron fayl qilib joylashtiriladi.

Ma'muriy huquqbuzarlik ishlarida dalillarni yig'ish va tekshirish mexanizmini takomillashtirish ham muhim ahamiyatga ega. Amaliyotda dalillar asosan huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari tomonidan yig'iladi va keyinchalik sud tomonidan baholanadi. Biroq dalillarning ishonchliligini tekshirish jarayoni ba'zan murakkab va vaqt talab qiluvchi jarayonga aylanadi. Xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, dalillarning yagona elektron reestrini joriy etish mazkur muammoni hal qilishda samarali mexanizm hisoblanadi.

"Kanada va Niderlandiyada ma'muriy hamda jinoiy ishlarda yig'ilgan dalillar raqamli platformalarda saqlanib, Royal Canadian Mounted Police[7] va Netherlands Council for the Judiciary [8] tizimlari orqali vakolatli organlar va sudlar tomonidan tekshiriladi. European Commission hamda Council of Europe materiallarida qayd etilganidek, bunday yondashuv dalillarning o'zgarmasligi, shaffofligi va ishonchliligini ta'minlaydi."

Xitoyda bojxona qoidabuzilishlari bo'yicha ishlar asosan davlat bojxona organi – Xitoy Xalq Respublikasining Bosh bojxona boshqarmasi tomonidan yuritiladi. Ushbu tizim "Customs Administrative Penalty Implementation Regulations" hamda Xitoy Bojxona qonuni asosida amal qiladi.[9] Xitoy tajribasida ish yuritishning asosiy xususiyati – huquqbuzarliklarni aniqlashda avtomatlashtirilgan axborot tizimlaridan foydalanishdir. Bojxona

Contact: 99 826 99 56





deklaratsiyalari, yuk hujjatlari va logistika ma'lumotlari maxsus elektron platforma orqali tahlil qilinadi. Xavflarni boshqarish algoritmlari orqali shubhali operatsiyalar avtomatik tarzda aniqlanadi va tekshiruvga yuboriladi. Agar qoidabuzarlik aniqlansa, bojxona organi tomonidan ma'muriy ish qo'zg'atiladi, dalillar yig'iladi va qaror qabul qilinadi. Ilmiy tadqiqotlarda qayd etilishicha, Xitoyda bojxona ishlarining katta qismi elektron dalillar va raqamli ma'lumotlar asosida ko'rib chiqiladi, bu esa ish yuritish jarayonini sezilarli darajada tezlashtiradi.

O'zbekiston sharoitida ham ma'muriy huquqbuzarlik ishlari bo'yicha dalillarning elektron reestrini yaratish, foto-video materiallar va boshqa elektron ma'lumotlarni yagona tizimda saqlash tizimini joriy etish ilmiy jihatdan asoslangan taklif sifatida qaralishi mumkin.

Yuqorida keltirilgan tahlillar asosida quyidagi ilmiy asoslangan takliflarni ilgari surish mumkin: ma'muriy huquqbuzarlik ishlarini yuritish jarayonini to'liq raqamlashtirish va elektron bayonnoma tizimini joriy etish; xolis guvohlar institutini bosqichma-bosqich videofiksatsiya va audiofiksatsiya mexanizmlari bilan almashtirish; dalillarning yagona elektron reestrini yaratish va sudlar hamda vakolatli organlar uchun yagona axborot bazasini shakllantirish; ayrim ma'muriy huquqbuzarlik ishlari bo'yicha soddalashtirilgan va masofaviy sud ko'rib chiqish tartiblarini joriy etish.

Yuqoridagilarni inobatga olib, O'zbekiston Respublikasining MJtKning 282-moddasida ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnomaning jo'natish deb keltirilgan bo'lib ushbu moddaga oxirgi band sifatida "Agarda ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishda huquqbuzarlikni sodir etish quroli bo'lgan ashyoni musodara qilish bilan xamda zarar kelib chiqmagan taqdirda soddalashtirilgan tartibda yuritiladi ya'ni ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnoma o'zi etarli xisoblanadi".deb kiritish maqsadga muvofiq xisoblanadi.

Contact: 99 826 99 56





Xulosa sifatida ta'kidlash mumkinki, ma'muriy huquqbuzarlik ishlarini yuritish tizimini takomillashtirishda raqamlashtirish, protsessual harakatlarni avtomatlashtirish va sud amaliyotini soddalashtirish asosiy ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Mazkur chora-tadbirlar orqali ish yuritish jarayonining shaffofligi, tezkorligi va samaradorligini oshirish, shuningdek inson omili ta'sirini kamaytirish mumkin. Bu esa o'z navbatida O'zbekistonda ma'muriy adolatni ta'minlash va huquqbuzarliklar profilaktikasini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, ma'muriy huquqbuzarliklar bo'yicha ish yuritishning qonuniyligini ta'minlash hamda bojxona organlarining ma'muriy amaliyot faoliyatini takomillashtirish zarur bo'ladi.

REFERENCES:

1. I.A.Xamedov va O'.X.Muxamedov taxriri ostida "Ma'muriy huquq" darslik O'zbekiston Respublikasi IIV akademiyasi Toshkent 2017-yil.
2. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. Toshkent: Adolat 2026-yil.
3. Achilov A.T. va boshqalar. "Bojxona organlarining huquqni muhofaza qilish faoliyati" darslik 1-qism. Toshkent.:2021
4. European Commission. Digital Europe Programme (2021-2027). – Brussels, 2021.
5. Strafprozessordnung. Strafprozessordnung (StPO). – München: C.H. Beck, 2022. – §58a, §168a.
6. Council of Europe. Guidelines on electronic evidence and digital justice. – Strasbourg, 2019.
7. Royal Canadian Mounted Police (2020)
8. Netherlands Council for the Judiciary (2019)
- 9.<http://english.customs.gov.cn/statics/4440eff0-0440-4876-8f8a->

Contact: 99 826 99 56





SCIENTIFIC CONFERENCE OPEN PROCEEDINGS

Global Academic Knowledge Repository



9c8f16be4355.html

Contact: 99 826 99 56

